

TOLMOZOR BUVA YODGORLIGI

Abdullayev Zohidjon Tolibjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti, Tarix yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyati Uychi tumani Yorqo‘rg‘on qishlog‘i hududida joylashgan qadimiy qadamjolardan bo‘lgan Tolmozor buva yodgorligi tarixi qisqacha yoritilgan. Bundan tashqari uning qurilish uslubi, Tolmozor buvaning kelib chiqishi haqida ham alohida ma’lumot mavjud.

Kalit so‘zlar: Yorqo‘rg‘on qishlog‘i, Fayziobod, Tolmozor buva, Madamin Normatov, Toshpo‘lat Mirzarahmonov, Uvays Qaraniy.

MONUMENT OF GRANDMOTHER TOLMOZOR

Annotation: In this article, the history of Tolmozor Buwa Monument, one of the ancient temples located in the territory of Yorkurgan village, Uychi district, Namangan region, is briefly covered. In addition, there is special information about its construction style and the origin of grandfather Tolmozor.

Key words: Yorkurgan village, Fayziabad, Tolmozor buva, Madamin Normatov, Tashpolat Mirzarahmonov, Uvais Qarany.

**SHU AZIZ VATAN – BARCHAMIZNIKI
I.KARIMOV**

Inson o‘zining tug‘ilib o‘sib Vatan ichida kichik Vatanga aylangan ona qishlog‘iga bo‘lgan mehr-muhabbati vatanparvarlik ruhida ulg‘ayish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir inson o‘z qindik qoni to‘kilgan zamin tarixi haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Zero donishmand xalqimizda shunday naql bor “Vatanparvarlik o‘z ona yurtini o‘rganishdan boshlanadi”- deb bejiz aytmagan. “Tadqiqotchi olimlarning fikricha, Sharq xususan IX-XII va XIV-XV asrlarda

bamisolı po‘rtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yukslaishning manbayi hisoblangan”.

Yorqo‘rg‘on qishlog‘i Uychi tumanidagi qadimiy, hamisha navqiron go‘zal qishloqlardan biri. Qishloq zaminida hayot qachondan boshlangani haqida aniq fikr bildirish qiyin. Chunki bu hudud va atrofdagi qishloqlarda hozirga qadar professional ilmiy-arxeologik qazishma ishlari olib borilmagan. Shunga qaramasdan, ba’zi ma’lumotlarda, Yorqo‘g‘on va yon atrofdagi Qizilrovot, Uychi, Fayziobod, O‘nhayot hamda qo‘shni Namangan tumanidagi ayrim qishloqlarda yashovchi aholi o‘rtasida bundan ming yillar avval Norin daryosi shu qishloq hududlaridan keng ko‘lamda yoyilib oqib o‘tganligi ta’kidlab o‘tilgan.

Yorqo‘rg‘on qishlogining Toshloq mahallasida joylashgan ushbu yodgorlik rivoyatlarga qaraganda IX asrda dafn etilgan Tolmozor buvaning qabri atrofida shakllantirilgan. Tolmozor buva Qora shayx buvaning og‘a-inilaridan biri bo‘lgan va bir davrda yashab o‘tgan. Qishloqning har ikki maskani yonma-yon joylashganligi bois aholining yashashi, islam dinini qabul qilishi, qabristonlarning paydo bo‘lib shakllanishi tabiiy hol. Tolmozor buva yodgorligida joylashgan qabristonning bunchalik qadimiy ekanligini eshitgan odam shubhaga borishi tayin. Lekin qabristonlarda har 300-400 yillar oralig‘ida tuproq sharoiti, atrof-muhit ob-havosiga bog‘liq holda qabrlar asta-sekin yemirilib tuproq ostida qolib ketadi. Tekislikka aylangan maydonga ikkinchi, uchinchi va shu zaylda marhumlar dafn etiladi. Hozirgi dafn etilganlar ehtimol, o‘ninchisi, balki undan ham keyingi avlod bo‘lishi mumkin. Bunday masalalarda aniqlik faqatgina arxeologik tadqiqot ishlari orqali ta’milnishi mumkin. Yodgorlik Tolmozor buva deb atalishi xususida rivoyat saqlangan. Ulardan birinchisida aytishicha, o‘n bir og‘a-ini diniy ulamolar bo‘lgan. Odamlarni hidoyat yo‘liga boshlash maqsadida ular safarga chiqadilar. O‘zaro kelishuvga ko‘ra, yo‘lda uchragan har qishloqda bittadan qolishadi. Navbatdagi qishloqda qolayotganga boshqa birodarlar: “Tepalik yoniga tol daraxtining bitta shoxini o‘tqazib, parvarish qilsang, bu daraxt katta bo‘ladi. Bizlarga nishona bo‘lib ko‘rinadi”, - deb o‘z yo‘llarida davom etishgan. Qoldirilgan kishini mahalliy aholi Tolmozor buva deb atagan. Keyinchalik

“Tolmozor” nomi kelib chiqqan. Tolmozor buvaning qabri tog‘risida aholi orasida ikki xil qarash mavjud. Ba’zilar qabrni Tolmozor buvaniki desa, ba’zilar Qayroq buvaniki deyishadi. Ko‘pchilik esa ular ikkovi ham biro dam deb ta’kidlaydi. Buning uchun quyidagi dalillarga e’tibor qarataylik: Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) o‘z yaqinlarining qabrlarini oson topilishi uchun qabr tepasiga tosh qo‘yganlar. Shundan so‘ng tosh qo‘yish sunnat amallardan biri bo‘lgan. Shunga muvofiq, Tolmozor buva qabriga ham atrofdagi tosh qo‘yilgan qabrlardan ajralib turishi 2 ta qayroq tosh qo‘yilgan bo‘lishi mumkin; Qayroq buva shaxsi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q; Mozor va qabr, ya’ni Tolmozor buva qabristoni Qayroq buva qabri deb ikki xil nom bilan yuritilishi islom dini an’analariga to‘g‘ri kelmaydi; Ayrim kishilar qabrdagi qayroq toshlarning sirti oddiy tosh, ichki qismi esa sof tilla bo‘lgan deyishadi. Bir valiy insonning tushida shu qayroq toshlarni qabrdan olib qayergadir olib borish aytilgan. Shundan keyin asl qayroq toshlar yo‘qolgan. Hozirgi qabr ustidagi tosh oddiy qayroq toshligini, asl qayroq toshlar esa Baliqko‘ldagi Sulton Uvays Qaraniy qabriga olib ketilganini aytishadi;

“Namangan viloyatining madaniy merosi” kitobidagi Tolmozor buva yodgorligi haqidagi qismida Qayroq buva haqida ma’lumotlar uchramaydi.

Lekin Uvays Qaraniy majmuasiga tosh olib ketilganligi haqidagi fikrlar asossiz ekanligi ilmiy dalillar yordamida isbotlangan. Shundan kelib chiqib, qabr Tolmozor buvaniki ekanligiga shubha qolmaydi. Yaqin davrlarda amalga oshirilgan dastlabki qurilish qabriston xodimi Murodilla ota tomonidan 1932-yilda Tolmozor buva qabriga yaqin joyda ziyoratga keluvchilar uchun 10x4 metrli yozlik ayvon qurilgan. 1964-1965-yillarda mehnat faxriysi Ummatali ota Yo‘ldoshev rahbarligida oldi ayvonli 2 xona bino quriladi. Qabristondagi yer maydonlari va daraxtlardan olingan daromad hisobidan Davlatali Mirzajonov boshchiligida 2004-yilda sinchli 2 ta xona va yozlik ayvon ta’mirlangan. Ushbu binodan hozir ham samarali foydalilanildi.

2012-2013-yillarda yodgorlikning kichik qismida aka-uka Ahmadjon va Ma’rufjon Mamataliyev, Ulug‘bek Qoriyev, Dilmurod Jo‘rayevlar homiyligida xom g‘ishtli 3 ta xona qurib bitkazilgan. 1995- yilda Madamin Normatov homiyligida

tiklangan arkli darvoza 2015-yilga kelib aka-uka Akramjon va A'zamjon Ziyotovlar tomonidan zamonaviy ikki qanotli metall darvoza bilan to'ldirilgan. Tolmozor buva qabri 2016-yilda mehnat faxriysi Toshpo'lat Mirzarahmonov rahbarligida homiylar yordami bilan ta'mirlangan. Tolmozor buva yodgorligining umumiy maydoni 11 ga. bo'lib, undan 1,1 ga. dafn etish uchun mo'ljallangan bo'sh maydondir. Yodgorlikda umumiy 7 bino bo'lib, ulardan 4 tasi sinchli, 3 tasi esa xom g'ishtlidir. Chegarasining umumiy uzunligi 850 metr bo'lib, asfaltlangan yo'laklar 956 m² ni tashkil etadi.

Maydoni to'rtburchak shaklda bo'lib, bir necha pasttekisliklardan iborat. Tuprog'i toza, mahalliy aholi turli yillarda tuproqdan teridagi toshmalarga shifo o'rnida foydalangan (bolalik paytimda tuproqdan toshmalarga qarshi foydalanimishini guvohi bo'lganman). Hududining tuzilishiga ko'ra katta va kichikka ajratish mumkin.

Ularni shimoldan janubga tomon uzunligi 100 m., balandligi 5-6 m. bo'lgan jarliklar bir-biridan ajratib turibdi. Bir necha yillar davomida mas'ul insonlar tomonidan ko'ngillilar jamoasi yordamida ko'plab obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi va yangi obodonlashtirish ishlari rejasи belgilab olingan.

TOLMOZORTEPA – Uychi tumani Yorkatay kishlog'i sharqiy lududida tuproq tepalik. Balandligi 15-20 metr. Maydoni 9 hektar. Rivoyatlarga kura Qиргизистонning Safed bulon va Tergachi qishlog'idagi «Oyimbuloq» mozori avliyolari ogaini bulishgaa Ulardan biri shu yerda vafot ettan va dafn qilingan. Avlodlari kidirib kelib kabrni kurgan va otasiga «Sizni topdik ota» («taptig' ota») deb aytgan emish. Shundan buyon qabristonning nomini «Toptig' ota» deydiilar. Arxeolog AN.Bernshtam va yu.AZadneprovskiyalar 1946-1951 yillarda qazishma ishlari olib borgan va sopol kuza, piyola, metall buyumlari, zebu ziynatlar topishgan. Ular qabristonning miloddan avvalgi I asrga oid ekanligini aniqlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ro‘zimov B., Rajabova S., Usmonov Y., Qosimov A. Namangan viloyati madaniy merosi. Namangan – 2013.
2. Абдулла Жаббор НАМАНГАН ВИЛОЯТИ (ихчам маълумотлар тўплами) «Наманган» пашриёти -2011 й.
3. Dala materiali: Uychi tumani Yorkatay qishlog‘ida yashovchi Abdullayev Tolibjondan olindi. 2021-yil 25-noyabr kuni suhbatlashildi.
4. Dala materiali: Uychi tumani Yorkatay qishlog‘ida yashovchi Yoqubjon Yusupovdan olindi. 2021-yil 28-noyabr kuni suhbatlashildi.